

Bol totli deb barmog'ingni tishlama. Maqol

Akang qarag'ay qishloqqa kayfiyati buzilib, ruhi ezilib, ming-ming pushaymonlar yeb qaytib keldi. Bo'lib o'tgan achchiq ichakday uzun gaplarni hech kimga, hatto qo'rboshiga ham aytmadi.

Aytsam, Toshkentga borib, tog'am bilan yulishib kelishdan qaytmaydi, deb o'yladi. Bo'lmasa, qo'rboshidan yashiradigan siri yo'q, hatto ulfatlar gurungidagi nozik-nozik hazil-huzullar ham ichida qolmaydi. Qo'rboshi ham, aytmasa, jim qarab turadigan anoyilardan emas: ichidagini baliq ovlagandek bitta-bittalab sug'irib olmaguncha ko'ngli joyiga tushmaydi.

Qo'rboshi - akang qarag'ayning necha yillik turmush o'rtog'i - Xosiyat. Chigirtkadek chillashir bu ayol har gapida "akang qarag'ay!" deya ko'ksiga uradigan o'ktam yigitni qaysi makri-maqomi bilan burnidan ip o'tkazib olganiga ahli ovul hayron. Yer tagida ilon qimirlasa sezadigan qo'rboshi, akang qarag'ayning shashti pastligini fahmlamasligi mumkin emas, albatta.

- Tog'a bo'y bermadimi? - xuddi ichidagini o'qib turgandek tikkalay so'roqqa tutdi u. - Nimaga garangsib turibsiz?

- Heshtima. Kamandirovkada ekan. - Yolg'onladi akang qarag'ay. - Sher akaniyam, Yulduzniyam topolmadim. Hofizni pradussir degan yugurdagi borakan, ikki-uch kunda gaplashib, hal bo'lsa, aytaman, deb va'da berdi.

- Unday bo'lsa, angrayib o'tirmay, kattalarni chaqiring, maslahat oshi qilib, tayyorgarlikni boshlaylik. Uljon momom aytardi, yonida bir miri yo'q, tuyaning tishini ko'rar, deb. To'y-to'y, deb chakkangizga gul taqib yuribsiz, buyoqda hech vaqoning tayini yo'q.

Akang qarag'ayning rejasi ham shunday edi. U ayoliga bir o'qrayib, o'g'lini yonboshiga o'tqazdi-da, mehmonlarni nomma-nom aytib yozdirdi.

O'g'li Eltoy velosipedini g'izillatib, xabarchilikka ketdi. Akang qarag'ay supadi bir o'zi qoldi. Ovozasi Toshkentgacha yetib boradigan to'y qilib, tog'ani dong qotirish ishtiyoqi yurak-bag'rini o'rtayotgan edi.

U ikki-uch kundan buyon tig' tegmagan rapidadek iyak-chakkasini kirt-kirt qashib, supadagi karavotga o'tirdi. Temir karavot g'ijirlab ketdi. Cho'ntagidan nosqovoq chiqardi, tishiga tak-tak urib nos otdi, toqqa tomon suzib ketayotgan bulutlarga tikilib, uzoq sukutga cho'mdi. Shu mahal: "Ko'kka qara, osmon quduqqa o'xshaydi", degan bir sas quloqlari ostidan yelib o'tganday bo'ldi. Dumaloq ko'zlari qisilib, osmonga tikildi. "Quduqmish... - ko'rsatkich barmog'ini chakkasiga nuqib aylantirdi, - sog'liq joyidami?"

"Bir etak bolang bor, yer tirnab topganlaringni shamolga sovurma, - pichirladi yana o'sha sas. - Kelin-kuyovning do'st-yoriga ixchamgina bazm qilib, qolganini sandiqqa solib qo'y. Ro'zg'orning o'ttiz ikki og'zi bor, deydilar. Hali ko'p kerak bo'ladi".

Akang qarag'ayga xuddi tog'asi qo'lini vallahatlaracha yelkasiga qo'yib, tepasida turgandek tuyulib ketdi. "Qo'lingizni torting!", deganday yelkasini siltab, yon-veriga nigoh tashladi. Tog'asining o'gitlari yodiga tushgan sayin tabiati tirriqlashdi. "O'zim ahmoq, o'zim eshak miya! Bo'lmasa, borarmidim? Shuncha pand-nasihatdan keyin, yana artistdan gap ochamanmi? Battar bo'l. Endi ko'ngling joyiga tushgandir... - U chapanichasiga so'kindi. - Tog'aning fe'lini bilmasmiding! Bilarding. "Sen aytgan artistlarga ko'kidan kamida bir yarim-ikki ming berish kerak", "Puling ko'paygan bo'lsa, bolalarni o'qit, kelinni olib sanatoriya bor, dam ol," deb dars berarini yaxshi bilarding!"

U ovozini chiqarib alam bilan o'zini koyidi:

- Battar bo'!

Tog'aning aytganlari og'uli o'qday badanini teshib o'tib, suyagiga qadalgan, zahri hali-hanuz yetmish ikki tomirini zirqiratib og'ritayotgan edi. "Bolalarim och, osh-non bering, deb tilandimmi! - qarshisida tog'a turgandek o'dag'ayladi u. Bizdayam orzu-havas bor. Or-nomus bor! Biz ham odam!" - og'zidagi nosni supa pastiga qarab jahl bilan tuflab yubordi. - Hali... bir to'y qilay, bir to'y qilayki!.."

Qosh qora-qoraya mehmonlar kirib kela boshladilar.

Akang qarag'ayning o'rtancha akasi To'ychiboy rangi o'chinqiragan taxta darvoza oldida: "Keling, keling, xush kepsiz, torting, torting", deb bakovullik qilib turdi.

Qachonlardir panjakash somon suvoq qilingan-u, keyin qo'l tegmay qolib ketgan o'n uch bolorli, vassajuft xona odam to'laverganidan so'ng binoyidek mehmonxona siyoqiga kirdi.

Mehmonlar ikki toifa: kattalar - qishloq oqsoqoli, uning yordamchisi, bozorqo'm, maktab direktori, sobiq birigadir; yaqin qarindoshlar - aka-uka, tog'a-jiyan va yana xotin tarafdin terib-terib aytilgan vakillar.

Machit so'fisi Davron hoji ham keldi. U o'rta bo'y, soch-soqoli oppoq, qotmadan kelgan, qiyiq ko'zlari muloyim kulimsirab turadigan kishi edi. Hoji duoga qo'l ochdi:

- Har bir otaning o'g'liga qiladurg'on haqqi uchtadur. Tug'ilsa, yaxshi ism qo'ymoq; aqli kirs qur'oni Karimni o'rgatmoq; balog'atga yetganda uylantirib qo'ymoq. Inimiz Qo'yliyov payg'ambarimiz amallaridan yana bittasini ado etmoqqa qasd qilibdi ekanlar, to'y qulluq bo'lsin, deb duo qilamiz.

Baravariga "Ovmin!" dedilar.

Hoji yaqindagilar bilan bir-bir so'rashib chiqdi, qolganlarga "Siz yaxshimi, siz yaxshimi?", deya bosh iring'adi. Rauf oqsoqol bilan alohida salomlashdi:

- Damliginamisiz, rais bova? Hamro gidingni ta'ziyasida ko'rinmadingiz?

Rauf oqsoqol "Hamma sendek bekor xo'jami?", deganday malollandi:

- Majlis borakan, rayonga chaqirishuvdi.

Non ushatishdi, oling-oling deya bir-birlariga manzarat qilishdi. Gurung boshlandi.

- Har guzarda to'y, shu bugunning o'zida to'rt joyga kirib-chiqibmiz, - dedi shukrona ohangida Davron hoji.

- Yig'adiganini yig'ib, oladiganini olib bo'ldi hamma. Endi erta bahorgacha to'y qiladi, yeb-ichadi, o'ynab kuladi-da, - ensa qotirma qildi Rauf oqsoqol.

- Allohga shukr.

Rauf oqsoqolning chap tarafida oyoqlarini chalkashtirib o'tirgan Qulbin bozorqo'mning nima uchundir shashti past edi. Patsiz namatlarga to'shalgan yakqavat ko'rpachalarga, dasturxonga, vassalar orasidan xas-xashak osilib turgan shiftga qarab ijirg'anar edi. "Shu topda bir nima degudek bo'lsang, sen tizza bo'yi noz-ne'mat, tovoq-tovoq go'shtga o'rgangansan-da, deb kesatishadi, - xayolidan o'tkazdi u. - Mehmon atoyi xudo, qurbing yetsa chaqir.

Bozorqo'mning asabiylashuvi kuchayaverdi. - Novvoydan to'rtta oq non opkelish kimni o'ldiribdi? - U qop-qora toshpatirdan bir burda sindirib, mo'jiza tomosha qilayotganday aylantirib tikildi...

- Choyini suzing, mulla Qulbinboy, - xayolini buzdi poygakda o'tirgan sobiq brigadir. - Halitdan beri kuzataman, azaga kelganday

qovoq-tumshuq qilib o'tiribsiz, tinchlikmi?

Bozorqo'm gavdasini unga burdi, boshini boshiga yaqinlatib:

- Maslahat oshiga qo'y-po'y so'yilmasmidi? - dedi pang tovushda.

Brigadir til uchida "Ha" deb qo'ydi. Ko'kayida: "Dardi-kasali tomoq, pul. Bozorning bo'risi. To'ng'izday to'q", degan fikr kechdi.

Qarindoshlar tomonda ham suhbat avjida.

- To'y yaxshi-da, har kimni to'yga yetkazsin, - derdi Mamayusuf choygga bo'ktirilgan nonni og'ziga tiqarkan. - Odamlar bir-birlarini ko'radi, dardlashadi.

- Odamzot dunyoda nima uchun yashaydi, to'y-tomosh qila, el-yurtga osh beray, deb-da, to'g'rimi? - gapini ma'qullatishga oshiqardi Piyon pona. - Qodirqul qassopning to'yidagi xalqqa qara - butun oblis daryoday oqib keldi-yov!

- Uloqchi otlar-chi, mingdan oshdi-yov!

- Xorazmlik artis zo'rakan, o'yinchisi hammani o'ynatdi.

- Nasib bo'lsa, Qo'yliyovniki undanam zo'r bo'ladi! - maqtandi To'ychiboy. - Yo Yulduz keladi, yo Sher!

"Qoqqani qozig'i, osgani xurmachasi yo'g'u, chiranishini ko'r! - ichida po'ng'illadi Qulbin bozorqo'm. - Puling borakan, uyingni tuzat! O'zingga qara! Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga..."

Dasturxonga sho'rva tortildi. "Danakday-danakday go'sht demasa, shildir suvning o'zi!" - yanada asabiylashdi bozorqo'm.

- Non to'g'rab iching, maza qilasiz, - dedi brigadir bozorqo'mga sirli iljayib.

Qulbin bozorqo'm qoshiqni bir-ikki labiga tekizdi, qo'ydi. Sho'rvani xo'r-xo'r yutayotganlarni ensasi qotib kuzatib turdi-da:

- Bo'kib-netib qolmasdan avval maslahat qilaylik! - dedi zarda bilan. - Qo'yliyov, nima topshiriqlar bor?

Qo'yliyov labini qo'lining orqasi bilan shosha-pisha artib:

- To'yda to'ybegi bo'p tursangiz bas, bozorqo'm bova, - dedi itoatkorona.

- Joy ko'chadami?

- Yarim gektar hovli turib, ko'changiz nimasi? - uning o'rniga javob berdi To'ychiboy. - Olmalardi ostini tekislaymiz - uloq chopguday maydon, tevaragiga gilam teramiz - gulday to'yxona!

- Ustini yopish kerak, - maslahat bergan bo'ldi Rauf oqsoqol. - Nima bo'lganidayam oldimiz qish, shir etib qormi, yomg'irmi tashlab qolsa, sichqonning ini ming tanga bo'lib yurmasin.

- Menga qolsa, raysentirdagi to'yxonada o'tkazgan ma'qul, - dedi maktab direktori bo'shagan kosani o'rta surib qo'yib. - Issiq, batartib, to'y egalariyam mehmonday boradi, mehmonday yuradi.

- Bola-chaqa, xotin-xalaj oyoq ostida o'rallishmaydi, - uni quvvatladi sobiq brigadir.

- E-e! Bola-chaqa, xotin-xalajdi qiy-chuvisiz to'y-to'yumi! - ensasi qotdi To'ychiboyning. - Restaraningizni shaharlikka chiqargan, aka.

- Xo'-o'sh, - dedi Rauf oqsoqol muhim masalani hal qilgandek cho'zib. - Demak, hovlida. Joyni aniqladik. Kosa-tovoq, choynak-piyola deganday...

- O'tirgichlarni maktabdan, kosa-qoshiqlarni bozor oshxonasidan olsak, - deb turibmiz. Gilam-sholcha qo'ni-qo'shnidan chiqar, - axborot berdi mezbon.

- Mehmon qancha bo'ladi?

- Qishloq o'z-o'zidan to'liq aytiladi, - sayrab ketdi To'ychiboy. - Qo'shni qishloqlar ham. Anchadan beri maraka-mavrid qilganimiz yo'q. Elnikini yeb yuribmiz. Qarz. Qarzni uzish lozim.

- Go'sht, guruch-yog' deganday, hal bo'lganmi? Aroqchi?

Akang qarag'ay kurakday kaflari bilan go'shtdor bo'ynini ishqaladi.

- Bitta novvos, bitta qo'chqor boquvda. Sabzi-piyoz o'zimizdan chiqib qolar. Qolganlariga... - U "qolganlariga, mana, sizlar bor", deganday yer ostidan qarindoshlarga nazar tashladi. Odatga ko'ra, og'a-inilar to'yonalarini aytishi - bittasi guruchini, ikkinchisi yog'ini, uchinchisi shiravorini zimmasiga olishi lozim edi. Hozir bo'lsa... Hech kimdan sas-sado chiqmadi.

Ayni shu daqiqalarga umidlar bog'lab o'tirgan akang qarag'ayning dami qaytib, tomog'iga muz tiqilganday tanglayigacha muzlab ketdi.

Noqulay sukunat cho'kdi. Hamma cho'yan pechka ustidagi rang-tusi bilinmay ketgan tunuka choynakning shig'illab qaynashiga mahliyo bo'lib qolganday edi.

Sukunatni bozorqo'mning xirqiroq tovushi buzdi:

- To'y, o'zi qachon?

- Ha, darvoqe, to'y kuni aniqmi? - qiziqsindi Rauf oqsoqol.

- Vaqtini belgilolmay turibmiz, - arang javob berdi akang qarag'ay.

- Nimani maslahat qilyapmiz unda? - oshkora ajabladi bozorqo'm. - Kunini aytmay to'y qilasanmi?

- Artistlar masalasida ishkali chiqdi.

- Qanday ishkali, tog'aga bir og'iz shipshib qo'ymaysanmi?

Akang qarag'ayning bo'g'zidagi muz parchasi endi bir hovuch cho'qqa aylanib azoyi badanini kuydirib yuborayotgandek bo'ldi.

- Qo'ying, gapirmang! - dedi birov tomog'idan bo'qqandek xirqirab. - Shu odamga orqa qilib, tushib o'tiribman.

- Bu nima deganing?! - savol berdi ikki-uch kishi baravariga.

- Ay-y! - keskin qo'l siltadi akang qarag'ay. - Yaxshiyam, qarz so'rab, amal so'rab bormappan, urib o'ldirarkan. Kattasinib ketganini bilganda, qadamim dorimasdi.

Hamma ang-tang bo'lib qoldi. Axir, "tog'a", kimsan - qishloqdan, nafaqat qishloqdan, butun boshli tumandan yetishib chiqqan eng taniqli, hurmatli odam - Vali Rustamovich edi-da!

Vali Rustamovich necha yillardan buyon respublika vazirliklaridan birini gard yuqtirmay boshqarib keladi, obro'-e'tibori mamlakat doirasida ham hazilakam emas. Hamma joyda aytgani-aytgan, degani-degan. Shunday katta amaldor-u, biroq boladay sodda.

Qishloqqa kelsa, sim-siyoh "Mercedes"dan tushgan zahoti darrov kastum-shim, lolarang bo'yinbog'ni oddiy kiyim-boshga almashtirib oladi-da, to'g'ri qabristonga boradi. Avval onasining, keyin otasining mozori yonida cho'kkalab, qiroat bilan Qur'on tilovat qiladi. So'ngra akasi yetakchiligida qishloq aylanadi. To'y, ta'ziya bo'lgan xonadonlarga birma-bir kirib, hol-ahvol

so'rashadi. Yordam so'rganlarga qo'lidan kelganini ayamaydi: hamqishloqlarining necha-necha farzandlari uning ko'magida oliy

ma'lumotli bo'ldi, ishga o'rtnashdi.

Shunday inson to'g'risida aytilgan nopisand gap tirsagini soniga tirab, echki soqolini yamlagancha suhbatga quloq solib o'tirgan Ali maxsumga yomon ta'sir qildi. U barcha iddaolarga bardosh berar, ammo ukasi Vali Rustamovichga pashsha qo'nsa, chidab turolmasdi. "Bir omadi kulib ministr bo'lib qolgan, deb o'ylamanglar, - deydi hasad qilganlarga. - Boshidan qanday qiyinchiliklar o'tmadi ukam boyaqishning. O'zi Toshkentga bordi, o'zi o'qidi, ishga kirdi, uy-joyli bo'ldi - bittamizdan bir chaqa so'ragan emas. Aksincha, bayramlarda kelib hammamizga sovg'a-salom ulashib ketardi. Keyin eshitsuq, studentligida kunduz o'qib, kechasi qayroq zavodda ishlagan ekan. Institutni tamomlab endi ishga kirgan paytlarida ham shanba, yakshanba kunlari mardikorlik qilarkan... Xizir nazar solmasa, eshak bozorga dallol bo'lolmaysan. Rahbarlikka ham har kimni qo'yavermaydilar...

Maxsum vaysaqi jiyanining quloq chakkasiga qulochkashlab tortib yuborgisi keldi-yu, bir amallab o'zini bosdi:

- Qaltiramasdan, tushuntirib gapirsang bo'lmaydimi? Xo'sh, ukam nima dedi?

- To'y qilma, dedi. Kichkinagina ziyofatcha qil-qo'y, dedi. - Jazavasi tutdi akang qarag'ayning. - Har kun to'y qilib, har kun kelin tushirayotganimday, to'y bilan hech kimni qoyil qilolmaysan, emish. Kallani ishlatish kerak, emish. Go'yo u kalla - kalla, bizniki salla.

- Yo'g'-e! Shunaqa dedimi? - dedi yasama hayronlik bilan Poyon pona. "Qo'yilning to'yiga Yulduz kelarmish, Sher kelarmish", degan shov-shuvlar chiqqandan buyon g'ayirliki kelib yurardi uning. - Tug'ishgan tog'a, o'z jiyaniga-ya..! Hay, dunyoyi qo'tir.

- Mazax qildi! Yosh bola qildi. Kambag'alligimni betimga soldi! - titrab-qaqshab baqirib yubordi akang qarag'ay.

- Yomon bo'пти. Yaxshi ish bo'mapti. Vazir odam, o'ylabroq gapirmapti, - boshini sarak-sarak qildi Poyon pona. - Katta bo'lsa, o'ziga.

- Xalqqa kam aralashgandan keyin shu, - uning yoniga tushdi Xosiyatning akasi Parada quruq. - Eldan chiqibdi.

- Bilganingdan qolma, - dedi kimdir.

- Shu qilganiga, Sherni ham, Yulduzini ham opkelasan, tong otguncha o'ynatamiz. - dedi boshqasi. - Qistirmagan nomard.

- Menga qolsa, yonboshiga ko'pkariniyam qo'shvorardim. - dedi yana boshqa birovi.

Ali maxsumning g'azabi qaynab, o'ng qavog'i ucha boshladi. "Kistasida bo'lmasa, bitiga qiladimi!", deb yuborishdan arang o'zini tiydi.

Davron hojining yuzlari tundlashib, peshonasidagi ajinlar chuqurlashib ketdi. Uning davrani og'ziga qaratayotgani Rauf oqsoqolning g'ashiga tegayotgan edi. "Hoji emas, mendan lozim bu gaplar, - xayolidan o'tkazdi ichida afsus bilan. - Kimsan, davlatdan moyana olib turgan rahbar, dabdabayu as-asalarning oldini olishga javobgar mas'ul shaxs bo'lsam! Qolaversa, gap aylanib Vali Rustamovichning qulog'iga yetib borsa, kim degan odam bo'laman, quruqning o'tiga ho'l kuyar, bo'lib qolmagin yana, oqsoqollikka davog'arlar ko'payganda hokimga aytgan, qo'llab-quvvatlagan kim edi?" - U xatosini tuzatishga shoshildi:

- Vali Rustamovich hukumat odami. Gumburlatib to'y qil, jiyan, desinmi, paytavaquloq! Sening dang'ir-dung'iring kimga kerak?

Ko'pam chiranaverma.

- Yana nasihatmi? - qalampir chaynaganday aftini bujmaytirdi akang qarag'ay. - Boy to'y qilsa, hamma xizmatda. Qassop jahonga osh beradi - churq etmaysiz, Meli ferma ko'pkari solimga tuya qo'yadi - og'zingizda talqon...

- Oqsoqol, aqlli odam o'ziga rahnamo izlaydi, ahmoqqa esa uning keragi yo'q, - dedi Ali maxsum "bunga gapirish befoйда" degandek xo'rsinib. So'ng g'azabi ichidan toshib ketishidan qo'rqqandek labini mahkam qimtib "pona"chilarga yuzlandi. - Buni, mayli, nodon, deylik. Senlarni qaysi jin chaldi? Kechasi bilan pul pechatlab chiqadigan zavodi yo'q-ku!

- To'g'ri gap tuqqaningga yoqmaydi, - to'ng'illadi akang qarag'ay.

Ali maxsumning boshi og'riqdan zirqirab ketdi. G'azabning zo'ridan tili kalimaga kelmay duduqlandi:

- Qo'yli... jiyan... O'ylamay so'ylagan - og'rimay o'ladi. Birovning arqoni bilan chuqurga tushma, chiqolmay azob yeysan.

Hamrohingga emas, hamyoningga boq, jiyan. Hech kim senga yomonlik sog'inib turgan yo'q. To'y deb, bor yiqqan-tiqqaningdan ayrilma, hamma hayitga ketganda xumga kirib yotishning keragi yo'q, deyapmiz, nega tushunmaysan!

- Zombirday chaqavermang-da, tog'a, - ukaning tarafini oldi To'ychiboy. - Bola to'y qilmoqchi, o'g'rilik emas.

Rauf oqsoqol uvishib qolgan oyog'ini uqaladi:

- Ari chaqdi deb arazlamang, inim, arini boli bo'ladi. Yurganda oyoqni ehtiyot qilgandek gapirganda tilni tiymasang, tishing sinib qolishi mumkin.

Qulbin bozorqo'm toqatsizlandi:

- Osh-ovqating bo'lsa opke, bo'lmasa, turaylik.

- Qayoqqa turasiz, hali heshtima hal bo'lgan emas-ku! - Fig'oni falakka chiqdi To'ychiboyning.

Qo'yli to'ng'illab-to'ng'illab chiqib ketdi.

- Dasturxonga qaranglar, bir kunlik to'y o'tadi-ketadi, qizishib, yuzimiz shuvit bo'lib yurmaylik, - dedi Davron hoji.

Dasturxonda, mayna talagandek, qurtlagan mayiz-yong'og'u arzon konfetlargacha tugab bo'lgan edi.

- Og'aynilar, rostini aytganda, ko'rgan kunimiz qursin, - davom etdi Davron hoji. - Yil - O'n ikki oy qush tinsa tinadi, biz tinmaymiz. Yemay-ichmay yig'amiz-da, to'yda ariqqa otganday oqizamiz. Keyin yuramiz, qarza botib, tishimizning kirini so'rib.

- Omon bo'ling, hoji aka, omon bo'ling. Ammo-lekin, yaramni tirnab yubordingiz, - dedi salqi qovoqlari shishgan brigadir ichki arnon bilan. - Safarqulimni uylantirganda besh yuz ming qarz bo'lganman, to'rt yuzi hali shundoq turibdi. Bittasidan yuz

olgandim, so'rayverib it kunini boshimga soldi, shu zang'ardan qutulay, deb ko'zimning siydigini oqizib pul so'rab bormagan eshigim qolmadi. O'zingda yo'q, olamda yo'q. - U og'ir yukni bir zum yelkasidan qo'yib, yana uni ko'tarib ketishga mahkum kimsadek chuqur "uf" tortdi. - Yelkamda tog', yeganim - kuydirgi, yotganim - kafan, o'ylayverib kechasi bilan uxlo olmay chiqaman.

- Qarzni vaqtida uzmoq farz, - dedi Davron hoji. - Mol achchig'i - jon achchig'i. Pul jigardan bo'ladi. To'ra kazzopning bolalari bir-birovini chavaqlab tashladi-ya!

Hojining keyingi misoli mehmonlarning "gap xaltasi"ni ochib yubordi:

- Pichoq ko'krakka kirmaguncha ko'zimiz ochilmaydi.

- Olishda, hoy-hoy, berishda, voy-voymi?

- Ko'rpaga qarab oyoq uzatish kerak...

- Mo'ltonini to'yiday chuvillamanglar!

Eshik lang ochildi. Katta sopol tovoqlarda taom keltirildi.

- Sovusga marhamat qilinglar, - manzarat qildi To'ychiboy.

"Sovus emish... - ichida to'ng'illadi bozorqo'm, - Sovus deganda go'sht bo'ladi, yog' bo'ladi. Murraygan kartoshka-piyoz bilan suv

3 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

This is not registered version of TotalDocConverter

qachon o'z yonidan qo'yib...

- Non opke, - dedi kimdir asabiy.

- Aroq-marog yo'qmi? - so'radi Sharif tajang. - Tomoqlar taqillab ketdi-ku!

- Aroq-marogni to'yda ichamiz, - dedi To'ychiboy zo'raki iljayib.

- To'yda otib yotsak, xizmatni xotinlar qiladimi? - sap-sariq tishlarini ko'rsatib xo-xoladi Sharif tajang va to'satdan jiddiy tus olib Qo'yliga yuzlandi. - Ursang ham, so'ksang ham bir gap aytaman, oshna. Vali tog'a yuz prosan haq! Sen bilan menga sovunday ko'pirishni kim qo'yibdi. Tutunning achchig'ini mo'ri, sening ahvolingni men bilaman!

- Vaysamay ovqatingni ye, - ijirg'andi Qo'yli.

- Vaysayman, - Sharif tajang rostakamiga tajanglashdi. - Nega vaysamay! Ichganimiz yovg'on, kiyganimiz yirtiq chopon, Yulduz-Yulduz, to'y-to'y, deb tomoq yirtamiz. Mana, manda to'rtta bola bor, kattasi bu yil maktabni bitirib, xudoga shukur, institutdan yiqilib keldi. Qolganlarining o'qishi ham no'li! Chunki, bizni xudo urgan. Farzandim o'qisin, odam bo'lsin, deb istol-pistol, komputir-pamputir olib bermaymiz, pulni qizg'anamiz. To'y desa, ming qo'yli boyday hovuchlab sochamiz. Katta to'y berib ko'chama-ko'cha kerilib yurgimiz keladi. Kinga kerilaman, nimamga kerilaman, koshki hamqishloqlar kimligimdan bexabar bo'lsa. Bu kuningdan o'l, deydigan mard yo'q.

- Gap faqat to'yda emas, - dedi halidan beri dardini ichiga yutib o'tirgan Ali maxsum fursat kelganidan jonlanib. - Kallani o'zgartirish kerak, kallani. Armiyada nemislarning to'yini ko'rganman. Sakkiz odam bilan o'tgan. Yarimta shnaps hammadan ortib qolgan.

Davruga og'ir jimlik tushdi. Akang qarag'ay chakagini kirt-kirt qashidi, sobiq brigadir boshini solintirib yerga tikildi. To'ychiboy tomoq qirib, o'tirgan joyida qimirlab qo'ydi. Bir zaylda shig'illab turgan pechka ustidagi tunuka chovgum cho'zib hushtak chalib yubordi.

- Nemis - nemis, o'zbek - O'zbek. To'yni biz o'ylab topganmasmiz, qadimgi udum. Har kimning orzu-havasi bor. Qilaman deпти, qilsin, sizga nima? - shovqin soldi Poyon pona. - Qilaver, og'ayni, bilganingdan qoma.

- Yomon jo'radan bir chekim nos afzal, degani shu-da, - astoydil xafa bo'ldi Ali maxsum.

- Xafa bo'lmang, - qulog'iga shivirlab uni yupatgan bo'ldi Rauf oqsoqol. - Eshak maslahatlashib hangramaydi...

Akang qarag'ayning nafasi bo'g'ila boshladi, ketkisi, diqqinapas bu uydin tezroq chiqib hech kim ko'rmaydigan qop-qora tun quchog'iga singib ketkisi kelib ketdi. Kun bo'yi ariq kovlagan mardikorday horg'inlik sezdi vujudida. Nega Toshkentga bordi, nega tog'asiga yalindi, tuturuqsiz g'iybatchi qarindoshlarni nega chaqirdi? "Toshdan suv chiqsa chiqar, bulardan bir chaqa chiqadimi? Chiqmaydi! Chiqmaydi! Xarjlaydigan sen, pul topadigan sen, zarilmidi zahar-zaqqum kesatiqlar. Pona rost aytadi, bilganingdan qolma".

U odamlar qachon turdi, qachon tarqaldi, ayoli qachon bolalarga bosh bo'lib yig'ishtirishga kirishib ketdi, angolmay qoldi.

Aqli-hushini yig'ib olganda, bir o'zi supada oyoqlarini kergancha serrayib turardi. Havo muzdek ekan, entikib-entikib simirdi, tungi izg'irin yuz-ko'ziga tikonday sanchildi. Badani junjikdi. Uyga kirgisi kelmadi. Cho'ntakdan nosqovog'ini chiqarayotganida kalishini "shap-shap" sudrab qo'rboshi kepqoldi.

- Ana, bir tashvishdan qutuldingiz. - U chelakdagi suvni, yuvindimi - "sho'r" etkizib supa pastiga to'kdi. Bo'sh chelakni yerga qo'yib, ikki qo'lini beliga tiradi. - Mehmonlar xafa bo'lmay ketdimi, ishqilib. To'yonadan gapiring, qalay, o'tli-cho'g'limi?

Akang qarag'ay javob bermadi. Xotiniga yeb qo'ygudek o'qrayib qaradi. Kunduz kuni bo'lganda erining alvastinikiday olayib ketgan ko'zlarini ko'rib, esi og'ib qolishi hech gap emasdi.

- Indamaysiz, nosingiz bormi?

- Qo'yaver, - xuddi o'ziga gapirayotganday sekin pichirladi u. - Devonaning ishini xudo o'nglaydi.

Qo'rboshi tushundi.

- Qo'yavering, endi ko'ryapmizmi? - dedi bir zumlik sukutdan keyin hamdard tovushda. - Qishda bir hovuch qor so'rasang, "nechchi so'm?", deydigan qurumsaq qarindoshlaringizdan qachon yorug'lik chiquvdi?!

Bu gap pichingdek tuyuldi akang qarag'ayga.

- Senikilar ja-a hotami toy! Sog'ay desang - sut, qirqay desang - jun yo'q senikilarda.

- Ichingizga ilon kirganmi, muncha zahar sochasiz! - qo'rboshi "bor-e!" degandek ters o'girilib nari ketdi.

U yana yolg'iz qoldi. Yulduzlarni yutib yuborgan simsiyoh osmonga siniq nigoh tashladi. Shu payt qulog'i ostida yana tog'asining tanish ovozi eshitilganday bo'ldi: "Osmon tubsiz quduqqa o'xshaydi. Undan chalpak tushadi, deydigan andilar ham bor". Seskanib ketdi. Yon-veriga xavfsirab qarab qo'ydi. "Topgan matalini... - shivirladi so'mrayib. - Quduq emish... Quduq..." "Yalt" etib so'ngan yulduzdek g'alati bir umid to'satdan xayol osmonida charaqlab ketdi. Xuddi ko'kdagi quduqdan bir telpak tilla "tap" etib oyog'i ostiga tushayotgandek tuyuldi. Umrida afsona-ertakka ishonmagan odam, xuddi yosh boladay sehrlanib, ko'zlarini chirt yumdi. Ochsa, barcha umidlari chil-chil sinishidan qo'rqib ancha vaqt qimirlamay turdi-turdi-da, qo'rqa-qo'rqa ko'zini ochdi: qorakuya osmon inson zotini tiriklab yutib yuboraman deb turgan bahaybat ajarday vahimali ko'rindi... "Tentak, - dedi o'ziga-o'zi. - Bir uy odamdan bir ho'plam suv oberadigan bitta mard chiqmadi-yu, osmondan himmat kutasanmi?!" U oyog'i ostidagi paqirni alam bilan tepib yubordi, ancha joyga taraqlab dumalab ketdi.

Toshkent, tog'a, maslahat oshi, kesatliq-pichinglar, tortishuv-bahslar... Boshi sirqiradi. Yer, osmon ko'z o'ngida gir-gir aylanayotganday chayqalib ketdi. Ko'kdagi quduq qop-qora bulutlarga qo'shib, uning o'zini ham tubsiz komiga yutib yuboradigandek vahimaga tushdi. Kimdandir qasos olish, kimgadir, nimanidir ko'rsatib qo'yish tuyg'usi yurak-bag'rini yanada kuchliroq o'rtay boshladi.

- Qilaman! Kafangado bo'lsam ham! - mushtini falakka do'laytirib tubsiz quduqqa do'q urdi.